

“Toshkent IES” AJda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish doirasida 2024 yil yakunining bajarilgan ishlari yuzasidan HISOBOT

YANVAR

“Yoshlar va biznesni qo‘llab – quvvatlash yili” deb e‘lon qilinishi munosabati bilan “Toshkent Issiqlik elektr stansiyasi” AJning bir qator sex va bo‘limlari yosh xodimlari o‘rtasida “Quvnoqlar va zukkolar” ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Jami korxonadan beshta jamoa ishtirok etgan tanlovda birinchi o‘rinni – “Elektro shok” komandasi ya‘ni Markazlashgan ta‘mirlash sexi yoshlariga nasib etdi, ikkinchi o‘rinni “Istiqlol farzandlari”– 370 MVt Bug‘-gaz qurilmasi xodimlari egallashdi, uchinchi o‘rin 7-Rota ya‘ni kimyo sexi va boshqarma xodimlari komandasiga nasib etdi. Barcha ishtirokchilar estalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

FEVRAL

“Toshkent IES” AJda g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy tavallud topganligining 583 yilligi, hamda boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topganligining 541 yiligi munosabati bilan ishchi-xodimlar o‘rtasida "AJDODLAR YODI AVLLODLAR E‘ZOZIDA" deb nomlangan tanlov bo‘lib o‘tdi.

Tanlov yakuni bo‘yicha quyidagi ishchi-xodimlar g‘olib bo‘ldilar va korxona kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan taqdirlandilar.

"DONORLIK - BEG'ARAZ YORDAM"

“Toshkent IES” AJ ishchi-xodimlari va yoshlari 7-sonli shahar klinik shifoxonasida donorlik uchun beg'araz qon topshirdilar.

«Yashil makon» umumilliy loyihasini amalga oshirish va korxona hududida “Yashil belbog” yaratish maqsadida korxonaning faol yoshlari va obodonlashtirish guruhi bilan birgalikda daraxtlarga shakl berish, yangi nihollar ekish bo‘yicha eko aksiya bo‘lib o‘tdi.

27 fevral kuni “Toshkent IES” AJ ishchi-xodimlari va yoshlari bilan joylarda ekstremistik oqimlarning bunday g‘arazli maqsadlarini tushuntirishga bag‘ishlangan uchrashuvlar, davra suhbatlari o‘tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri “Toshkent IES” AJ ishchi-xodimlari bilan tashkil etildi.

Tadbirda ishchi-xodimlar tomonidan berilgan savollarga javoblar berildi, targ‘ibot ishlarini kuchaytirish borasida fikr-mulohazalar bildirildi. Shuningdek, diniy ekstremizm va terrorizmning fojiali oqibatlari tasvirlangan hujjatli film namoyish etildi.

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJning Birlashgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi kubogi uchun 2022 yil yakunida o‘tkazilgan mini-futbol musobaqasi g‘oliblari aniqlandi.

Mazkur musobaqaning yakuniy natijasiga ko‘ra “Toshkent IES” jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

27 fevral kuni “Toshkent IES” direktori Rustam Shamsiev 1 darajali diplom va kubokni qo‘lga kiritgan g‘oliblarni samimiy muborakbod etdi.

MART

Korxona kasaba uyushma qo‘mitasi tashabbusi bilan dam olish kunlarida stansiyaning 400 ziyod ayollari madaniy hordiq chiqardilar. Poytaxtning “Xalqlar do‘stligi” saroyida “Aziz va muqaddassan, ayol” nomli konsert dasturida ishtirok etib, o‘zbek estrada xonandalarining kuy va qo‘shiqlaridan bahramand bo‘lib qaytdilar.

8 mart “Xotin-qizlar kuni” munosabati bilan "Toshkent IES" AJ da "Ayol - jamiyat gultoji" nomli tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda 370-MVtli bug‘-gaz qurilmasi, elektr sexi, kimyo sexi, issiqlik nazorati va avtomatika sexi, birlashgan ishlab chiqarish texnika bo‘limi xotin-qizlari jamoasi ishtirok etishdi.

Birinchi o‘rin - "Bahor gullari", Ikkinchi o‘rin - "Shaddod qizlar", uchinchi o‘rinni "Uch yulduz" guruhi xotin-qizlari egallashdi.

G‘oliblarga stansiya rahbariyati va kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan qimmatbaho sovg‘alar taqdim etildi.

14 mart kuni “Toshkent IES” AJda "Jamiyatda diniy vaziyatni sog‘lomlashtirish, ogohlik va xushyorlikni targ‘ib qilish, odob-axloq qoidalari" mavzusiga bag‘ishlangan davra suhbatlari o‘tkazildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita vakili Oybek Qurbonov, Qibray tumani bosh imom xatibi Zokirjon Ziyatdinov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Raxmatilla Sheraliev ishtirok etdilar.

16 mart kuni umumxalq xayriya hashari ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi. Ushbu hashar Toshkent IES da ham ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi.

Navro'z ayyomi arafasidagi bu yilgi umumxalq hashari "Obod va fayzli mahalla – yurt ko'rki" shiori ostida bo'lib o'tdi.

Xashar doirasida korxona hududlari hamda ularga tutash yerlar va biriktirilgan mahallalarda obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilyapti. Yangi ko'chatlar ekildi.

Shuningdek, ko'p yillik daraxtlar tanasi oqlanib, ularning tagi yumshatildi. Mevali daraxtlarga shakl berish, atrofni supirish, tozalash ishlari bajarildi.

«Toshkent IES» filiali xodimlari o'rtasida 2023 yil – «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»ga bag'ishlangan "Sport – salomatlik garovi" shiori ostida sexlararo yosh xodimlar o'rtasida sport musobaqalarga start berildi.

18 mart kuni "Navro'z" bayrami munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbirida aëllar o'rtasida shashka, ërkaklar o'rtasida shaxmat va mini-futbol musobaqalari bo'yicha g'oliblar aniqlanib rahbariyat va kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

19 mart kuni "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z" shiori ostida bahor bayrami Navro'z munosabati bilan "Toshkent IES" AJda turkum tadbirlar o'tkazilmoqda.

Bugun korxona ishchi-xodimlari o'rtasida "ZAKOVAT" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

Ushbu musobaqada korxonaning barcha sex va bo'limlaridan 11 ta guruh - 55 nafar ishchi-xodimlar ishtirok etdilar.

Musobaqa 2 bosqichda tashkil etilib, qiziqarli va sermazmun savol-javoblarga boy bo'ldi.

Yakuniy natijalarga muvofiq, birinchi faxrli o'rinni Sinash va sozlash sexining xodimlari egallashdi.

Ikkinchi o'rinni Markazlashgan ta'mirlash sexi xodimlari, 3-o'rinni Issiqlik nazorati va avtomatika sexi xodimlari egallashdi.

Musobaqa qatnashchilari esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

29 mart kuni "Toshkent IES" AJ yoshlari davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida faol ishtirok etmoqda. Stansiya hududidan o'tgan "Bo'zsuv" kanali atrofiga 100 tupdan ziyod pavloniya va katalpa singari xushbo'y gulli daraxtlar ekildi. Yomg'irga qaramay obodonlashtirish guruhining bu tashabbusida chetda qolmaslik uchun biz ham yaxshi niyatda daraxt ekish ishlarida ishtirok etdik.

APREL

3 aprel kuni "Toshkent IES" AJ ishchi-xodimlari bilan hududlarni ko'kalamzorlashtirish, yangi ko'chatlar ekib parvarishlash, shaxsiy xonadonlarni gullab-yashnatish borasida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Shuningdek, davra suhbatida korxona kasaba uyushma qo'mitasi raisi Munira Qosimovaning "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari", Ijtimoiy masalalar bo'yicha maslahatchi Gulnora Ahmedovaning "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" mavzularidagi ma'ruzalari ham tinglandi.

9 aprel kuni buyuk ajdodimiz Amir Temurning 688 yilligi nishonlanishi munosabat bilan "Toshkent IES" AJda mehnat qilayotgan ishchi-xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini tatbiq etish maqsadida "Temuriylar vorislari" shiori ostida sport tadbirlari o'tkazildi.

100 metrga yugurish va arqon tortish musobaqalarida 12 nafar ayollar va 20 nafardan ziyod erkaklar qatnashishdi.

Ayollar o'rtasida birinchi o'rinni INATS elektro chilangari Nargiza Asimova, ikkinchi o'rinni 2-qozon turbina sexi texnigi Nargiza Rustamova, uchinchi o'rinni INATS elektro chilangari Zuxra Abdullaeva egallashdi.

Erkaklar o'rtasida 100 metrga yugurish musobaqasida quyidagi o'rinlar belgilandi: Birinchi o'rin INATS elektro chilangari G'iyos Tulenbaev, ikkinchi o'rin IQXO o'qchisi Akmal Niyazov, uchinchi o'rin IQXO o'qchisi Baxodir Kadirbaev.

"XON ATLAS" festivalida milliy kiyinish madaniyatini keng targ'ib etish va ommalashtirish maqsadida "Toshkent IES" AJ xotin-qizlari ham faol ishtirok etdilar.

23 aprel kuni "Toshkent IES" AJ da "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan" shiori ostida stansiya xodimlari va yoshlari bilan ma'rifiy-ma'naviy davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisining Axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi Ilxom Marupov hamda qo'mita vakili Jahongir Meliqoziev ishtirok etdi.

23 aprel kuni "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ Birlashgan kasaba uyushmasi tomonidan "Talimarjon IES" AJga qarashli "Sohibqiron" yozgi bolalar oromgohida "28-aprel-Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni" munosabati bilan o'tkazilgan o'quv seminarida "Siz jamoa shartnomasini bilasizmi?" ko'rik tanlovida "Toshkent IES" AJ MXTX mehnat muhofazasi vakili Abduvaliev Xurshid g'oliblikni ko'lga kiritib, 1-darajali diplom va vaucher bilan taqdirlandi.

MAY

7 may kuni "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Toshkent IES" AJ ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi hamda yoshlar ittifoqi tomonidan nafaqadagi bir guruh energetika faxriylari holidan xabar olinib, bayram bilan tabriklandi, ularga oziq-ovqat to'plamlari taqdim etildi.

8 may kuni - "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Toshkent IES" AJ ёш ходимлари "Bor mehrim onamga" tanlovida tayyorlagan videoroliklari bilan faol ishtirok etishdi

Samimiy bo'lib o'tgan suhbatdan keyin baynalminalchi jangchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

21 may kuni "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ Birlashgan Kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan "O'zbekiston ayoli - mehr-sadoqat va taraqqiyot timsoli" shiori ostidagi Issiqlik elektr stansiyalari Xotin-qizlar forumida "Toshkent IES" AJ yosh ayollari ham faol ishtirok etishdi. Mazkur forumda Sportning voleybol turi bo'yicha "IES" AJ kubogi uchun o'zaro bellashuvda "Toshkent IES" AJ jamosi faxrli o'rinni egallab, esdalik sovg'a va Faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

IYUN

1 iyun 1 iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan "Toshkent issiqlik elektr stansiyasi" AJda "Bor mehrimiz senga, bolajon" mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

Korxona ishchi-xodimlarining farzandlarini madaniy maskanlarga va sayilgohlarda dam olishlari, ma'naviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan ishchi-xodimlar farzandlari uchun "Biz bolalar" teatrlashtirilgan konsert dasturiga 500 dona, Ashxobod saylgohiga 800 dona turli atraksionlardan foydalanish uchun chiptalar beg'araz tarqatildi.

10 iyun kuni "Toshkent IES" AJda erkaklar o'rtasida "Sportni sev, sport bilan yasha!" shiori ostidagi futbol musobaqasi o'tkazildi. Korxonaning 32 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 1- o'rinni Elektr sexi jamoasi, 2 - o'rinni 370 MVt Bug'-gaz qurilmasi jamoasi, 3 – o'rinni Issiqlik nazorati va avtomatika sexi jamoalari egallashdi.

Futbol musobaqasida o'rin egallagan jamoa a'zolari korxona kasaba uyushma qo'mitasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

16 iyun kuni "Toshkent IES" AJda xotin-qizlar o'rtasida voleybol sport musobaqalari ham bo'lib o'tdi. "Sportni sev, sport bilan yasha!" shiori ostidagi mazkur musobaqasi qizg'in baxslar bilan o'tkazildi. Bu musobaqalarda INATS, metallar laboratoriyasi, aloqa sexlari faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallashdi. G'oliblar korxona kasaba uyushma qo'mitasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

26 iyun kuni "Toshkent IES" AJ ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan "YoShLAR OYLIGI" doirasida yoshlar o'rtasida yugurish marafoni, arqon tortish sport musobaqalari o'tkazildi. Yosh xodimlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida 35 yoshgacha bo'lgan 23 nafar yoshlar musobaqalarga jalb etildi, shularda 9 nafari ayol xodimlar bo'ldi. Musobaqada yaxshi natijalarga erishgan yosh xodimlar turli qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

IYUL

11 iyul kuni "Toshkent IES" AJ da "Xotin-qizlarning siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirish" va "Oilada zo'ravonlikni oldini olish" mavzulariga bag'ishlangan davra suhbat tashkil etildi. Tadbirda "Toshkent IES" AJ Bosh direktorining ijtimoiy masalalar bo'yicha maslahatchisi Gulnora Ahmedova, Toshkent viloyati Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'limi rahbari Diloram Maxamadaliyeva, Qibray tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Rahima Naipova ishtirok etishdi..

24 iyul kuni "Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha "Dolzarb 30 kun"" tadbiri joriy etilmoqda.

Shu munosabat bilan "Toshkent IES" AJning 370 MVt Bug'-gaz qurilmasi ishchi-xizmatchilari o'rtasida davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda Respublika FVV o'ta muhim va toifalangan ob'ektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi boshlig'i podpolkovnik Jahongir Soipov ishtirok etdi.

Toshkent IESda favqulodda holatlarning oldini olish va yong'inlarni bartaraf etish, respublikamizda sodir bo'layotgan yong'inlar, favqulodda holatlar va ularning oldini olish bo'yicha tushunchalar berildi.

AVGUST

"Yangi O'zbekistonning baxtli bolalari" shiori ostida Issiqlik elektr stansiyalari tizim korxonalari xodimlari farzandlari o'rtasida oromgohlarda tashkil etilgan jamoaviy sport musobaqalari g'oliblarini taqdirlash marosimi tashkil etildi. Xususan, Sport estafetasida bolalar 4 ta shart asosida bellashdilar. Qizg'in kechgan baxslar so'ngida "Toshkent IES" AJ jamoasi faxrli o'rinni 3-o'rinni egalladi. G'oliblar "IES" AJ Birlashgan Kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

24 avgust kuni "Toshkent IES" AJ da Mustaqilligimizning 33 yilligi munosabati bilan "Biz bir bo'Isak yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!" shiori ostida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. "Vorislari" va "Elektroshok" jamoalari o'zaro kuch sinashib, "Tanishuv" va "Erkin mavzu" shartlari asosida qobiliyatlarini namoyon etishdi. Albatta, bellashuvlar qizg'in baxslar ostida o'tdi. "Elektroshok" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Barcha ishtirokchilar korxona kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

25 avgust kuni Davlatimiz mustaqilligining 33-yillik bayram shodiyonasini munosib nishonlashga tayyorgarlik ko'rish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19 avgustdagi 534 - F farmoyishi va "SMART INTEGRITY ME" MChJning 2024 yil 22 avgustdagi 883-sonli xati hamda 23 avgustdagi 62-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Toshkent issiqlik elektr stansiyasi" aksiyadorlik jamiyatida 24-25 avgust umumxalq xayriya hashari tashkil etilmoqda.

Stansiyada hamda ma'muriy bino hududida supirish va tozalash ishlarini olib borildi. Yo'laklar, ariqlar, yerto'la va boshqa hududlar chiqindilardan tozalanib, 30 gektar yer maydonida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Natijada shu kuni umumiy hiso'bda 1500 tup daraxtlar oqlanib, shakl berildi. Korxona hududidan o'tadigan Bo'zsuv kanalining 1 km suvbo'ylari begona o'tlardan xalos qilindi.

"Mahalla obod-yurt obod!" shiori ostida o'tkazilgan umumxalq xayriya hasharida 685 nafar korxona ishchi-xodimlari faol ishtirok etdilar.

SENTYABR

10 sentyabr kuni O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan "Toshkent IES" AJ ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi tashabbusi asosida bir guruh energetiklar qadimiy Buxoro ziyoratiga bordilar. 50 nafar ishchi-xodimlardan iborat guruh a'zolari Shayx Sayid Amir Kulol, Baxovuddin Naqshbandiyni onalari va o'zlariga qurilgan maqbaralar, Ark, Amir Olimxonning yozgi va qishki saroylari, Minorai Kalon, Labi-hovuz va boshqa tarixiy obidalar bilan tanishdilar, hamda katta taassurotlar bilan qaytishdi.

26 sentyabr kuni "Toshkent IES" AJda "Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi va uning oldini olishga doir chora-tadbirlar" mavzusiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Unda Toshkent shahar prokuraturasi bo'lim prokurori, II-darajali yurist Xudoyor Usmonov ishtirok etib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar, davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashish borasida ma'ruza qildi.

OKTABR

28 oktabr "Toshkent IES" AJ xodimlarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, madaniy dunyoqarashini o'stirish, ularning mutolaa madaniyatini yuksaltirish va bilimlarini oshirish, mustaqil O'zbekiston tarixini va ajdodlarimizning boy merosi bo'lgan adabiy, tarixiy kitoblar bilan yaqindan tanishish, adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish maqsadida «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovi o'tkazildi. 11-noyabr "Kasaba uyushmalari kuni" munosabati bilan tashkil etilgan ko'rik-tanlov 3 turdan iborat bo'ldi. Har bir tur 5 balli tizimda baholanib borildi. Tanlov ishtirokchilarining barchalari kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan rag'batlantiruvchi sovg'alari bilan taqdirlandilar.

NOYABR

1-6 noyabr "Toshkent IES" AJ ning Quvnoqlar va zukkolari 11-noyabr - kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan o'tkazilgan Respublika tanlovida faxrli 2-o'rinni egalladilar.

18-noyabr - O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan "Bayrog'imiz - g'ururimiz, orimiz" mavzusida 20 nafar yosh ishchi-xodimlar o'rtasida diktantlar tanlovi o'tkazildi.

26 noyabr Ishchi-xodimlarning kundalik turmush tarziga jismoniy tarbiya va sportni singdirish, sportning futbol, mini futbol turlarini ommalashtirish va rivojlantirish maqsadida «Toshkent IES» AJda minifutbol bo'yicha tsexlararo musobaqa o'tkazildi. Kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan musobaqada korxonaning yosh ishchi-xodimlari faol ishtirok etishdi. Musobaqalar yakunlari bo'yicha 1, 2 va 3 o'rin egallagan ishchi-xodimlar kasaba uyushma qo'mitasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

DEKABR

5 dekabr “Toshkent IES” AJning muxandis-texnik, ishchi xodimlari orasida turli tadbirlar o‘tkazilmoqda. Xususan, oylik doirasida bugun KTS-2 sexi hodimlari bilan “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazildi.

6-dekabr kuni “Toshkent IES” AJda ishchi-xodimlar o‘rtasida Bosh Qomusimizning mazmun-mohiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yurtimizda inson huquq va erkinliklari sohasida yangi bosqichga o‘tilganligiga bag‘ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil qilindi. Unda stansiyaning barcha sex-bo‘limlaridan bilim va zukkoligini sinashni istagan 14 nafar vakillari o‘rtasida “Konstitutsiya bilimdoni” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Ko‘rik-tanlov ishtirokchilari test sinovidan o‘tishdi. Stansiya ma'muriyati va kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan g‘oliblarga va ishtirokchilarga rag‘batlantiruvchi mukofotlar berildi.

Yoshlar ittifoqi yetakchisi



X. F. Abduvaliyev